DOI: https://doi.org/10.37547/supsci-ojp-05-03-94 Pages: 805-812

Oriental Journal of Philology



ORIENTAL JOURNAL OF PHILOLOGY

journal homepage:
http://www.supportscience.uz/index.php/ojp/about



# ABDULKAHIR JURJONI'S PLACE IN THE DEVELOPMENT OF BALAGAT SCIENCEIN

***Salimakhon A. Rustamiy***
*Professor, Doctor of Philological Sciences*
*Department of Oriental Languages, Oriental University*
*Email: salimarustamiy@gmail.com*
*Uzbekistan, Tashkent*

***Murodjon N. Majidov***
*1st year Master's student*
*Yangi asr University*
*Email: murodjonqori1972@gmail.com*
*Uzbekistan, Tashkent*

## ABOUT ARTICLE

**Key words:** The science of balagat, Abdulkahir Jurjoni, "Asroru-l-baloha", work, meaning, Arabic language, scientist, science of explanation, science of interpretation.

**Received:** 06.03.25
**Accepted:** 08.03.25
**Published:** 10.03.25

**Abstract:** The study of the science of balagat is the main factor in the study of our scientific heritage. Therefore, the work of Abdulkahir Jurjoni "Asroru-l-baloga" is of great importance. This article is written based on the study of the life and scientific work of Abdulkahir Jurjoni and the study of his work "Asroru-l-baloga”.

# ABDULQOHIR JURJONIYNING BALOG‘AT ILMI RIVOJIDAGI O‘RNI

***Salimaxon A. Rustamiy***
*professor, filologiya fanlari doktori*
*Sharq tillari kafedrasi, Oriental universiteti*
*Email: salimarustamiy@gmail.com*
*O‘zbekiston, Toshkent*

***Murodjon N. Majidov***
*1-kurs magistri*
*Yangi asr universiteti*
*Eamail: murodjonqori1972@gmail.com*
*O‘zbekiston, Toshkent*

## MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar** Balog'at ilmi, Abdulqohir Jurjoniy, "Asroru-l-balog'a", asar, ma'no, arab tili, olim, bayon ilmi, maoniy ilmi.

**Annotatsiya:** Balog'at ilmini o'rganish arab tilini o'rganishdagi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Bu ilmning nazariy asoslarini Abdulqohir Jurjoniyning "Asroru-l-balog'a" asarida ko'rish mumkin. Ushbu maqola Abdulqohir Jurjoniyning hayoti va ilmiy faoliyatini o'rganish va uning "Asroru-l-balog'a" asarini tadqiq qilish orqali amalga oshirilgan.

## МЕСТО АБДУЛКАХИРА ДЖУРЖОНИ В РАЗВИТИИ НАУКИ БАЛАГАТ

***Салимахон А. Рустамий***
*Профессор, доктор филологических наук*
*Кафедра восточных языков, Университет Ориентал*
*Email: salimarustamiy@gmail.com*
*Узбекистан, Ташкент*

***Муроджон Н. Мажидов***
*Магистрант 1-го курса*
*Университет Янги аср*
*Email: murodjonqori1972@gmail.com*
*Узбекистан, Ташкент*

**О СТАТЬЕ**

**Ключевые слова:** наука балагат, Абдулкахир Джуржони, «Асрору-л-балога», произведение, значение, арабский язык, учёный, наука объяснения, наука интерпретации.

**Аннотация:** Изучение науки балагат является основным фактором изучения нашего научного наследия. Поэтому труд Абдулкахира Джуржони «Асрору-л-балога» имеет большое значение. Данная статья написана на основе изучения жизни и научной деятельности Абдулкахира Джуржони и исследования его произведения «Асрору-л-балога».

**Kirish.** Bizning yurtimizga ajdodlarimiz qoldirib ketgan ma'naviy boylik jumladan balog'at ilmiga doir asarlar, asosan, arab tilida bitilgan. Balog'atli asar yozish usullari arab yo'zuvidan foydalangan ko'plab xalqlar ijodida ham namoyo'n bo'lgan. Bu kitoblar arabiy, turkiy va forsiy tillarda yozilgan bo'lib, ularni tatqiq qilib, ajdodlarimizning ilmiy merosini oshirish bugungi kun olimlari zimmasidagi muhim vazifa hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Abdulqohir Jurjoniyning balog'at ilmi rivojidagi o'rnini aniqlash uchun Mahmud Muhammad Shokirning 2003-yil Jiddada nashr qilingan Abdulqohir Jurjoniyning "Asroru-l-balog'a" asari ta'liqi, Abdulqohir Jurjoniy hayoti va faoliyati haqidagi materiallarni yoritishda Tojiddin Subkiyning 2000-yilda nashr qilingan "Tabaqotu-sh-shofiya"

asaridan foydalanildi. Tadqiqot materiallarining o’ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqiqb, ular tavsifiy, qiyosiy va komponentli tahlil asosida o’rganildi.

Natijalar. Abdulqohir Jurjoniy balog‘at ilmimnig asoschisi yoki asoschilaridan biri deb e’tirof etilgan. U o‘zidan oldingi balog‘at ilmining darg‘alaridan naql qilgan bo‘lsa ham, ushbu naql qilish bilan cheklanib qolmadi, balki o‘z qarashlari bilan bu muhim ilmni ilmiy dalillar bilan boyitdi. Tilshunoslarning ta’kidlashicha, Abdulqohir “Daloilu-l-e’joz” asarida g‘arb olimlaridan bir necha asr ilgarilab ketgan. Masalan, u ingliz faylasufi Jon Lokkdan oldin tildagi kommunikatsiya jarayonini tushuntirgan, Ferdinand de Sossyur va Antuan Meyedan avval til tahlili usullarini ishlab chiqqan, nemis olimi Fentning ramziy maktabiga asos solgan va amerikalik olim Tashumsakiydan avval transformatsiya-vujudga keltirish nazariyasi (generativ-nazariya) ga o‘xshash g‘oyalarni ilgari surgan

Muhokama. Davlatimiz kutubxona, ilmiy markaz va muzeylarida saqlanayotgan yuz minglab qo‘lyozma asarlar asosan arab tilida yo‘zilgan bo‘lib, ulardan to‘liq foydanalishda balog‘at ilmi  dastlabki o‘rinda turadi. Bizga ma’lumki, arab tili sarf-nahv va balog‘at ilmlariga ko‘ra  nazariy va amaliy asoslarga ega.Qo‘lyozma, toshbosma va zamonaviy nashriyotda chop etilgan arab tilida bitilgan asarlarni o‘zlashtirishda balog‘at ilmini o‘rganish zarur. Nodir asarlarni bizga meros qilib ketgan ajdodlarimiz balog‘at ilmimni ham nazariy, ham amaliy jihatdan to‘liq egallagan edilar.

Shunday olimlardan biri Abdulqohir Jurjoniy balog‘at ilmining asoschilaridan biri bo‘lib, u Eronning Jurjon shahrida hijriy 400-yil, milodiy 1009-yilda tug’ilib, shu yerda hijriy 471-yil, milodiy 1078-yilda vafot etgan. Ushbu shahar geografik jihatdan Kaspiy dengizining janubiy sharqida, Eronning shimolida joylashgan. (National Encyclopedia of Uzbekistan, 2005, p. 218)

Jurjon shahrining vasfi haqida Abdulqohir Jurjoniy o‘zining she’rida shunday deydi: (Akhrorov, 2024,  p. 40)

هی جنة الدنيا التنی هی سجسج          يرضی بها المحرور و المقرور
سهلية  جلية  بحرية          يحتل فيها منجد و مغير

Mazmuni: “U (shahar) quyosh taftidan bahra oladigan inson ham, sovuqda qongan kishi ham mamnun bo‘ladigan, ob-havosi mo‘tadil, kichik tog‘lar-u sug‘oriladigan yerlar, degiz-u toglik, tekisliklardan iborat dunyoning jannatidir.” Jurjoniy Jurjon o‘z shahrida ilm o‘rgandi, hatto ilm egallashda tengqurlaridan o‘zib ketdi. Bu zot ilm talabida o‘zga shaharlarga safar qilgani haqida manbalarda hech qanday ma’lumot uchramaydi. Sabab sifatida manbalarda u kishinihg safar uchun mablag‘i bo‘lmagani aytiladi. Shunday bo‘lsa-da u zot ilm olishdan to‘xtab qolmaydi.

Tojiddin Subkiy o‘z asari “Tabaqotu-sh-shofiyatil-kubro”da quyidagi ma’lumotlarni ketiradi (Shafi`I flashes, 2000, p.14): Shayh Abu Bakr Jurjoniy nahviy olim, ash’ariy mazhabga

ko‘ra mutakallim, shofiy mazhabga ko‘ra faqihdir. U nahv ilmini Jurjonda Shayx Abu Ali Forsiyning singlisining o‘g‘li Abu Husayn Muhammad bin Hasan Forsiydan olgan. Jurjon qozisi Abu Hasan ibn Abdulaziz Jurjoniydan adab ilmini o‘rgangan. Ushbu ustozining “Alvasotatu baynal-Mutanabbo va xusumuhu” nomli kitobini oqib, undan ijoza olgan. U mashhur olim, xar taraflama ustoz bo‘lib yetishdi, shu bilan birga viqorli, taqvodor va metin din egasi edi.

Anboriy u kishinihg ustozi Abu Husayn haqida “Nushat al-alboi fi tabaqot al-udaba” asarida shunday degan: Abdulqohir Jurjoniy ustozi haqida ko‘p hikoya qilardi, zero, arabiy ilmlarda Abu Husayndan boshqa mashhur kishini uchratmagan. Chunki, olim ilm talabida Jurjondan tashqariga chiqmagan. Shu bois, faqat Abu Husayndan tahsil olgan (Akhrorov, 2024, p.41).

Abdulqohir Jurjoniyning zamohdoshi Abu Hasan Boxariziy u kishiga ta’rif berib shunday deydi: “U zotning pehsqadam kishilardan ekanligi tillarda doston, bu inson sababli u yashagan davr, istiqomat qilgan shahar go‘zallashdi, xalqlarning yaxshisi u kishiga sano o‘qidi, u kishi tufayli zaif barmoqlar mushtga aylandi. Shu sabab u zot ilm ummonida, aniqrog‘i, mashhur ulamolar ichida yagonasi edi”.

Imom Subkiy aytadilar: “U kishi mashhur imomga aylandi, barcha yaxshi sifarlar, dinida mustahkam, taqvodorlik, ulug‘vorlik u kishida mujassam edi”.

Salafiy shunday degan: Abbdulqohir Jurjoniy taqvodor, toat-ibodatli kishi edi. Bir kuni uning uyiga o`g`ri tushdi. U nomozda bo`lgani sabali unga e`tbor ham bermadi.

Abu Muhammad Abivardi shunday degan:“Mening ko‘zim Abdulqohirdan ko‘ra lugatshunos biror bir olim ko‘rmagan”.

Musannif faqirligi sabab ilm talabida Jurjonni tark etmagan. Ammo fazl egasi bo‘lmish Alloh taolo unga foydali ilm ato etdi. U ko‘plab kitoblar yozib, bir qancha shogirdlarni ham chiqardi.

Abdulqohir o‘z davrining asosiy islomiy bilimlarini puxta o‘zlashtirgan, jumladan, Qur’on ilmlari, tafsir, fiqh va aqida masalalarida mukammal bilimga ega bo‘lgan. U shofe’iy mazhabida fiqhni yahshi bilgan va ash’ariy aqidasini himoya qilgan. Shuningdek, mantiq ilmini ham yahshi o‘zlashtirgani uning “Asroru-l-balog‘a” va “Daloilu-l-e’joz” asarlaida yaqqol ko‘rinadi.

U bir necha tilni – fotsiy, turk va hind tillarini bilgan. Hind tilini shu darajada puxta bilganki, ayrim arab shoirlarininig o`z asarlarida hind adabiyoti va qarshlaridan qanday o`zlashtirganliklarini aniqlay olgan.

Jurjonda u o‘z ilmiy majlislarini tashkil qilgan va ko‘plab talabalarga saboq bergan. Uning shogirdlaridan biri Ali ubn Zayd Fasihiy, Abu Zakariyo Tabriziy, Abu Omir Fazl ibn Ismoil Tamimiy va Abu Nasr Ahmad ibn Muhammad Shajariy bo‘lgan.

Tilshunoslarning ta'kidlashicha, Abdulqohir "Daloilu-l-e'joz" asarida g'arb olimlaridan bir necha asr ilgarilab ketgan. Masalan, u ingliz faylasufi Jon Lokkdan oldin tildagi kommunikatsiya jarayonini tushuntirgan, Ferdinand de Sossyur va Antuan Meyedan avval til tahlili usullarini ishlab chiqqan, nemis olimi Fentning ramziy maktabiga asos solgan va amerikalik olim Tashumsakiydan avval transformatsiya-vujudga keltirish nazariyasi (generativ-nazariya)ga o'xshash g'oyalarni ilgari surgan (Shamela.ws>autho/36 http://www.mawsoah.net).

Abdulqohir Jurjoniy o'zidan oldin o'tgan ulamolarning qoldirib ketgan ilmiy meroslaridan unumli foydalangan. Biz uning kitoblarida Sebavayh, Johiz, Abu Ali Forisiy, Ibn Qutayba, Quddoma ibn Ja'far, Omodiy, Qozi Jurjoniy, Abu Hilol Askariy, Abu Ahmad Askariy, Abdurahmon Hamadoniy, Marzaboniy va Zajjojdan naql qilganini ko'ramiz.

Abdulqohir Jurjoniy ko'p tahalluslarga ega. Misol uchun: Arab tili shayxi, bayon ilmida amiru-l-mu'minin va Somiy maqom egasi.

Olim balog'at ilmimnig asoschisi yoki asoschilaridan biri deb e'tirof etilgan. U o'zidan oldingi balog'at ilmining darg'alaridan naql qilgan bo'lsa ham, ushbu naql qilish bilan cheklanib qolmadi, balki o'z qarashlari bilan bu muhim ilmni ilmiy dalillar bilan boyitdi.

Arab tili ummiy, butparst, johil xalq tili bo'lgan. Islom dini kelgach esa bu til din, shariat, aql va tabiiy fanlar tiliga aylandi. Hamda ushbu til islom dini yetib borgan, tub joy aholisining ilmiy faoliyatlarining asosi bo'lib, bir qancha asrlar mobayinda xizmat qilib kelmoqda.

Ushbu til hijriy beshinchi asrga kelib, oqsay boshlagan. Bunga sabab nahv (arab tili garammatikasi) qoidalarini ishlatishda vaqf o'rinlari, mufrad va murakkab, lumlalar dalolat qilgan narsalarning , majoz va kinoyalarning zaifalashuvi bo'lgan. Ushbu narsa o'z zamoni arab tili ilmlarining imomi, shayx Abdulqohir Jurjoniyning nafsoniyatiga tegib, uning balog'at ilmini boblarga bo'lib o'rganishga va maoniy va bayon ilmlarining qoidalrini ishlab chiqarishga undadi. Chunonch, bu hodisa nahv ilmining zaiflashuvida ham kuzatilgan edi (The Secrets … Commentary by Mahmud Muhammad Shakir, 2003, p.11).

Johiz, Ibn Durayd va kotib Quddoma kabi ba'zi ulamolar bayon masalalari haqida Abdulqohirdan oldin ham kitoblar yozishgan. Lekin ular o'z asarlari orqali bayon ilmiga qoidalari yuksak, boblari ochib berilgan bir fan sifatida asos solishmagan. Bu ishni ulardan keyin, Abdulqohir Jurjoniy bajargan. U balog'at ulamolari fikricha balog'at ilminig asoschsi. Lekin, tarixchilar uning tarjimai-holi haqida yozilgan, o'z kitoblarida unga ushbu maqomni berishmagan. Hatto fanlar tarixi bo'yicha yetuk olim, Ibn Xoldun ham uning zikrini keltirmagan. Balki, u balog'atning tarqoq masalalari haqida kitob yozgan, yuqorida zikri o'tgan, ulamolardan keyin, balog'at fani asoschisi Sakkokiy deb, gumon keltirgan. Sakkokiy balog`at ilmini egallashida Jurjoniy asarlaridan o`ziga kerakli ma`lumotlarni egallab, bu ilmda unga tobe` bo`lgan.U Abdulqohirga bu ilmga tartib berish va uni boblarga ajrtishda xilof qilgan.lekin ba'zi

iboralarida takalluf (bir narsada haddan oshish) va ba'zi hulosalarida ta'qid (echimi yoq narsa)dan xole emas edi.

Sakkokiy balog'at ilmida ilm va amalni bir joyga birlashtirgan.U Abdulqohir Jurjoniy, hamda uning izdoshlari orasida va bayon qilish orqali nazariy ilmlar yo'lida yurgan, muta'axxir, mutakallif, ulamolar orasuda vositachi vazifasini bajargan. Abdulqohir kirobalrining nashr etib, undan foidalanish kamayib ketgan. Alloma Taftazoninig hoshiyasi esa bosma bo'lib, chiqishda davom etmoqda. Ana, bu ilm zaiflashib, egilib qolganda ummatga berilgan manfa'atli ilmning ahvoli! Abdulqohir Jurjoniyning “Asroru-l-balog'a va Daloilu-l-ijoz” kitoblaridagi misoli, Ibn Xoldunnung o'z muqaddimasi va Sulton Sulaymonning o'z qonunlaridagi misoliga o'xshash. (The Secrets … Commentary by Mahmud Muhammad Shakir, 2003, p.12).

Ammo Abdulqohirning balog'at fanini barpo qiliib, unga asos solganligi haqida bir qancha ulamolar o'z fikrlarini bayon qilishgan. Ulardan qadrlisi Said Yahyo ibn Hamza Husayniyning balog'atda Abdulqohirdan so'ng yozilgan eng go'zal kitobi “Tarozu fi ulumi haqoiqi-l-ijoz” kitobi kirish qismida yozganlaridir:

“Eng avval balog'at faning qoidalarini asoslab, uning hujjatlarini ravshan qilib, uning ilmiy boyligini ochiq ko'rsatib va balog`at fannlarini tartibga solib bergan zot bu yetuk olim, muhaqqiqlar peshvosi, shayx Abdulqohir Jurjoniydir. U balog'atning notanish kishanlarini ochiq qayd qilish orqali yechib tashladi. Balog'atning mushkul devorlarini qalin devor bilan o'rab qo'ydi. Balog'atning gullarini uning g'unchasidan ochib tashladi. Balog't qulflanib, noaniq bo'lib qolgandan keyin uning tugmalarini yechib yubordi. Alloh uning islomiga eng katta mukofat bersin! Uning savobdagi nasibasini to'liq nasiba va katta mukofatlar ila to'ldirsin! Uning yozgan asarlaridan ikkitasi: “Daloilu-l-ejoz” va “Asroru-l-balog'a” musannifning men yaxshi ko'rgan eng go'zal asarlaridir” (The Secrets … Commentary by Mahmud Muhammad Shakir, 2003, p.13).

Abdulqohir Jurjoniy nahv va balog'at ilmi olimi bo'lganligidan, ushbu ilm taqozasiga ko'ra bir qancha kitoblar tasnif etgan. Yozgan kitoblari ellikdan ortiq bo'lib, ulardan ba'zilarini sanab o'tamiz): 1. “Sharh-al-Fotiha” (“Fotiha surasining sharhi”). 2. “Durju-l-Durar” – Quro'n-al-azim tafsiri. 3. “Ejozu-l-Qur'on” (“Qur'onning ojiz qoldirishi”). 4. “Al- mu'tazida” ( “Ejozu-l-Qur'on”ning sharhi). 5. “Ar-risolatu-sh-shofiya” (bashariyatning Qur'on-karimga o'xshash biror bir narsani keltirishga ojizliklari haqida). 6. “Al-Mug'niy fi sharhi al-Iyjoz”. Mazkur asar o'ttiz jilddan iborat bo'lib, bu kitob Abu Ali Forsiyning “Al-Iyzoh” kitobining mukammal sharhidir. 7. “Al-Muqtasad” (muhtasar, qisqacha). O'ttiz jildli “Al-Mug'niy fi sharhi al-Iyzoh” kitobi sharhining muxtasari, qisqartirma shakli sanaladi. 8. “Miatu omil” (nahvga doir asar). 9. “Al-Jumal”. Kitob “Al-avomil al-miya” asarining sharhi hisoblanadi. 10. “At-talxis”. “Al-jumal” kitobinihg sharhi sanaladi. 11. “Al-umda” yoki “ Al-amad” (sarf ilmi (motfologiya) haqida

yozilgan). 12. “Asror al-balog‘a” (“Balog‘at ilmi sirlari”). 13. “Daloilu-l-ejoz” (“Ojiz qoldirish dalillari”). 14. “At-takamullatu fi an-nahv” (Nahv hlmi haqida mukammal kitob). 15. “Kitab al-aruz” (Aruz vazni haqida yozilgan). 16. “Ar-risalat as-soniya fi al-ejoz” (“Ojiz qoldirish haqidagi ikkinchi kitob”). 17. “Risala fi at-taqsim al-ulum” (“Ilmlarning taqsimoto borasida risola”). 18. “Sharh at-tazkirat an-nasriya”. 19. “Al-miftoh” – sarf ilmi haqida. 20. “Al-muxtor” (aruz ilmiga oid). (The Secrets … Commentary by Mahmud Muhammad Shakir, 2003, p.13).

Abdulqohir Jurjoniy arab tili va balog‘ati sohasida qilgan ilmiy qarashlari bilan islom sivilizatsiyasiga katta hissa qo`shgan, faxrli olimlardan biri. Uning asarlari bugungi kunda ham tilshunoslikning eng ilg‘or tadqiqotlari bilan bellasha oladi. Uning “ Daloilu-l-e’joz” (“E’joz dalillari”) kitobi eng muhim asari bo‘lib, unda u o‘zining mashhur nasariyasi – “ta’lluq nazariyasi” yoki “nasm nazariyasi”ni ilgari surgan. Bu nazariya o‘z davridan ancha ilgarilab ketgan bo‘lib, hozirgi tilshunos olimlarni ham hayratga soladi. Bu g‘oya zamonaviy g‘arb tilshinosligi nazariyalariga jiddiy raqobat qila oladi.

Abdilqohir “ Daloilu-l-e’joz” asarini yozishidan maqsad qilib, Qur’oni-karimning e’jozini faqatgina so‘zlar yoki ularning ma’nolari bilan izohlashni rad etishni ko‘zda tutgan. U Qur’onning e’jozi alohida so‘zlar yoki ularning yozilishi, go‘zalligi, yengil talaffuz qilinishi, istiora, majoz yoki ihchamlik bilan bog‘liq emasligini ta’kidlagan. Balki u i’jozning asosi “husni naszm” (mukammal tartib)li ekanligini isbot qilgan. Uning fikricha, so‘zlarning ma’nosidan ko‘ra ularning qanday tarzda tuzilganligi muhimroq.

Abdulqohir Jurjoniy yana bir mashhur asari “Asroru-l-balog‘a” bo‘lib, u sabab olim “balog‘at ilmi asoschisi” sharafiga musharraf bo‘lgan. Ushbu asar o‘z ichiga balog‘at ilmiga oid barcha kitoblarda yoritilgan masalalarni keng qamrab olganligi bilan ahamiyatlidir.

**Xulosa.** Jurjoniy arab tilshunosligi rivojiga munosib hissa qo‘shgan olimlardan bo‘lib, u ellikdan ortiq asar yozgan. Olim “Asror al-balog‘a” asari bilan balog‘at ilmiga asos solgan bo‘lsa, “Miat omil” asari sababli grammatik omillarni alohida asar sifatida bayon qildi. Bundan tashqari olim “Dalail al-e’jaz” (“Ojiz qoldirish dalillari”), sarf ilmida “al-Miftah” (“Kalit”), nahv ilmida “al-Muqtasad” (“Muxtasar”), “al-Jumal” (“Jumlalar”) va “at-Tatimma” (“Mukammal”) asarlarini, fe’l haqida “E’jaz al-Qur’an” (“Qur’onning ojiz qoldirishi”) va “al-Umda” (“Asos”) kabi asarlarni bitgan. Buyuk alloma diniy ilmlar, ayniqsa, sarf, nahv va balog‘at ilmlari orqali arab tilshunosligi rivojiga katta hissa qo‘shgan.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati:

1. National Encyclopedia of Uzbekistan, (2005). Uzbekiston Respublikasi Ensklapediyasi -Tashkent.22 Juz. -218 p.(in Uzbek)

2. Akhrorov, Ivadulla Ziyatovich, (2024). Abdulkahir Jirjaniy the protection of the information of the MIAT-factor "(PHD) dissertation. Abdulqohir Jurjoniy MIAT OMIL asarining Qur`ani karim ma`nolari tarjimasini izohlashdagi o`rni. -Tashkent.-40 p. (in Uzbek).

3. Shafi`I flashes (2000). Compled by: Subki, Tadiddin. Tabakotu-Sh-Shafia. Ta`lif: Tajiddin Subkiy. - Doru-l-library-lift-Arabian publishing house, Volume 5.-14 p.(in Arabic).

4. The Secrets of Eloquence by Abdulkahir Jurjani, with a Commentary by Mahmud Muhammad Shakir. (2003). Ta`lif: Asroru-Balogua lil-Abdulkahir Jurjani, ta`liqu Mahmud Muhammad Shakir. Doru-l-culturately, Jeddand. (in Arabic).

5. Ronido, Abdulhamid Mahmud briefed by Abdulkahir Al-Jurjani. (2023). Muallifotu Abdulkahir Jurjani. Ta`lif: Ronido Abdulhamid Mahmud. Maqall. Net, - 2 p. (in Arabic).

6. Yaqout bin Abdullah Al - Hamwi Al -Roumi. Glossary of countries. Beirut. Dar Sader. 1993 P.O./2/119/.

7. Shamela.ws>autho/36 http://www.mawsoah.net.